



AGRESSIV XULQ-ATVOR DESTRUKSIYA SIFATIDA

Yaxyoyeva Muhayyo Hikmatullo qizi.

Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada agressiv xulq - atvorning shakllanishi destruksiya sifatida shaxs agressiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tadqiqi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar : Agressiya, agressiv xatti-harakatlar, frustratsiya, ijtimoiy xulq-atvor, eros, tanatos, shaxs.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U.Makdugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning “inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi” degan qarashlaridir. Freyd ishlarida shuni ta'kidlaganki, barcha insoniy fe'l-atvor bevosita yoki bilvosita erosdan, xayot instinktidan yaraladi. Erosning quvvati (libido) xayotni mustaxkamlashga, saqlab qolishga va ko'paytirishga yo'naltiriladi.

Shunday qilib, tanatos agressiyaning tashqariga chiqib, boshqalarga yo'naltirishiga bevosita sabab bo'ladi. Freyd, agressiyaning kelib chiqishi va mohiyati haqida fikr yuritar ekan, u ikkinchi asosiy instinkt – tanatos – o'limga ishtiyoqning mavjudligini taxmin qildi. Bu instinktning quvvati buzg'unchilikka va hayotni to'xtatishga yo'naltirilgandir. Shunday qilib, tanatos agressiyani tashqariga chiqarishga va boshqalarga yo'naltirilishiga bevosita sabab bo'ladi.

Freydning agressiyaning boshlanishi va tabiatiga nisbatan bildirgan mulohazalari o'ta pessimistik bo'lgan, deyish mumkin. Chunki unga ko'ra agressiv xulq insonga tug'ma berilgan bo'lib, undan qutulib bo'lmasligi ta'kidlanadi. Lorens nazariyasining qiziqarli jixati shundaki, u orqali insonda boshqa jonzotlardan farqli o'laroq o'z turiga mansublarga qarshi zulum o'tkazish xollarining keng



tarqalganligini tushuntirib berish mumkin. Lorensning ta'kidlashicha, tug'ma kurash instinktidan tashqari barcha tirik jonzotlarga o'z xoxish-istaklarini bosa olish imkoniyati berilgan; bu imkoniyat ularning o'ljalariga qay darajada jiddiy talofat yetkazish yoki yetkazmaslik xoxishlari bilan o'zgarib turadi. D.Dollard tomonidan taklif etilgan nazariyaga ko'ra agressiya situativ jarayon sifatida ko'riladi. Frustratsiya har doim biror bir shakldagi agressiyaga olib keladi.

Uning fikriga ko'ra agressiyani chorlovchi masalalarda doimo frustratsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Frustratsiya – bu maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi barcha narsalardir (shu jumladan, ovqati tugagan oshxona ham). Agar shaxsning maqsadi kuchli motivatsiyalangan bo'lsa, qoniqish olishni kutayotgan bo'lsa va uning bu istagi to'siqqa uchrasa frustratsiya kuchayishi mumkin. Frustratsiya agressiyaning paydo bo'lishi uchun motivatsiya hosil qiladi. D.Dollard va M.Millerning fikriga ko'ra, frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sababga ko'ra agressiyani namoyon qilish jamiyat yoki jamoatchilik tomonidan jazolanishi mumkin. Bunday jazodan qo'rqish esa agressiya boshqa nishonga, ob'ektga yoki shaxsning o'z-o'ziga qaratilishi (suitsid sodir qilishi)ga sabab bo'lishi mumkin. A.Banduraning fikricha aggressiv xulq-atvor analizi uchun vaziyatni e'tiborga olishni talab qiladi: Unga ko'ra inson agressiyani oldini olish va uni nazorat qilib borishning ikki sababi bor: Nazariy nuqtai nazardan agressiya – ijtimoiy xulq-atvorning orttirilgan modelidir

Xorijda eng ommabop televizion ko'rsatuvlarning har soatida o'rtacha 9 ta jismoniy va 8 ta verbal agressiya ko'rinishlari namoyish qilinadi. Shunga ko'ra televizor oldida bir kunda ikki soat o'tirgan bola o'rtacha 17 ta aggressiv akt (holat)ning guvohi bo'lishi mumkin. Oiladagi bolalar mushtlashuviga otionalarning aralashuvi natijasini o'rgangan Felson, bola boshqa bolalardan ko'ra ko'proq o'zining yagona ukasi yoki singlisiga nisbatan jismoniy va verbal



agressiyani ko'rsatishini aniqlagan. Va bolaning uka- singlisi bilan bo'lgan munosabatlari agressiv xulq-atvorning shakllanishida muhim asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Bundan tashqari shaxsda agressiv xulqning shakllanishida oilaning ham o'ziga xos o'rni mavjud:

1.Ota-ona bolaga nisbatan qanchalik agressiv harakatlarni ko'p qo'llasa; 2.Ota-ona bola ko'z oldida boshqalarga nisbatan agressiv harakatlarni amalga oshirsa. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, AQShda har yili uch mingdan besh minggacha bola o'z ota-onasining ularga nisbatan qaratilgan shafqatsiz munosabatlari natijasi qurboni bo'lmoqda. Shuningdek, 16% bola aka-opalari tomonidan jismoniy jazo usuli: savalash, kaltaklash bilan jazolanmoqda. Aniqlanishicha, AQShda o'gay ota-onalar tomonidan bir yilda sodir etilgan jinoyatlar soni 400 tani tashkil etgan. Ular farzandlarining o'limiga sabab bo'layotganligi achinarli holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura A. Uolters R. "Podrostkovaya agressiya". –M., 1999.-512s.
2. Beron R. Richardson D. "Agressiya". –SPb.,1997.-336s.
3. Kovalev P. "Vozrastno-polovye osobennosti otrajeniya v soznanii struktury sobstvennoy agressivnosti i agressivnogo povideniya".
4. Rean A.A. "Agressiya v strukture povideniya vzbudimoy i demonstrativnoy lichnosti"// Ananevskie chteniya -97.-1997.-№2. –S. 5.Rean A.A., Trofimova N.B. "Gendernye razlichiya struktury agressivnosti u podrostkov // Aktualnye problemi deyatel'nosti prakticheskix psixologov". -1999. -№3. –S.6-7.